

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FONOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY- TIPOLOGIK TAHLILI

Raxmonberdiyeva Dilshoda O'ktamali qizi

University of Business and Science

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining fonologik tizimlari qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki tilning fonemalar tizimi, unli va undosh tovushlarning miqdori, artikulyatsion va akustik xususiyatlari, urg'u va intonatsiya tizimlarining o'xshash hamda farqli jihatlari tahlil etilgan. Fonologik birliklarning funksional vazifasi, fonemalarning distributsiyasi va fonotaktik qonuniyatlari o'rganilib, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tipologik umumiylik va milliy xususiyatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari fonologiya, lingvodidaktika va tarjimashunoslik sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *fonologiya, fonema, urg'u, intonatsiya, fonotaktika, qiyosiy tahlil, tipologiya, ingliz tili, o'zbek tili.*

Annotation: *This article presents a comparative-typological analysis of the phonological systems of the English and Uzbek languages. The study examines the phoneme inventories of both languages, the number and features of vowels and consonants, their articulatory and acoustic characteristics, as well as the similarities and differences in stress and intonation systems. The functional roles of phonological units, the distribution of phonemes, and phonotactic rules are analyzed to identify typological similarities and language-specific features of English and Uzbek. The findings of the research have practical significance for the fields of phonology, language teaching methodology (linguodidactics), and translation studies.*

Keywords: *phonology, phoneme, stress, intonation, phonotactics, comparative analysis, typology, English language, Uzbek language*

Аннотация: *В данной статье проводится сопоставительно-типологический анализ фонологических систем английского и узбекского языков. В исследовании рассматриваются фонемные системы обоих языков, количество и особенности гласных и согласных звуков, их артикуляционные и акустические характеристики, а также сходства и различия в системах ударения и интонации. Анализируются функциональные роли фонологических единиц, распределение фонем и фонематико-фонетические закономерности, выявляются типологические общности и национальные особенности английского и узбекского языков. Результаты исследования имеют практическое значение для фонологии, лингводидактики и переводоведения.*

Ключевые слова: *фонология, фонема, ударение, интонация, фонотактика, сопоставительный анализ, типология, английский язык, узбекский язык*

KIRISH

Tilning fonologik tizimi uning struktur asosini tashkil etadi, chunki fonemalar nutq tovushlarining ma'no farqlovchi eng kichik birliklari sifatida til tizimidagi barcha yuqori darajadagi birliklar (morfema, so'z, gap) uchun poydevor vazifasini bajaradi. Fonologik birliklarning tahlili tildagi tovushlarning fizik shaklini emas, balki ularning ma'no farqlovchi va funksional imkoniyatlarini o'rganadi (Trask, 1996).

Ingliz va o'zbek tillari har xil til oilalariga mansub bo'lgani sababli ularning fonologik tizimlari ham turli tipologik xususiyatlarga ega. Ingliz tili german tillar oilasiga mansub analitik til bo'lsa, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiruvchi agglutinatив sintetik til sanaladi (Crystal, 2008). Bu farq nafaqat grammatik qurilishda, balki fonologik tizimda ham namoyon bo'ladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, ingliz va o'zbek tillaridagi fonologik tizimlarning qiyosiy o'rganilishi til o'rgatish, tarjimashunoslik, nutq madaniyati va lingvodidaktika sohalarida katta amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlar, urg'u o'zgarishlari va intonatsion farqlar ingliz tili o'rganuvchilarida talaffuzdagi xatolarga sabab bo'ladi (Kenworthy, 1990). Shu bois, ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek fonologik birliklarini tahlil qilib, ularning tipologik o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan.

Fonemalar tizimi

Ingliz tilida 44 ta fonema mavjud bo'lib, ular 20 ta unli va 24 ta undosh tovushni o'z ichiga oladi. Unlilar qisqa va uzun variantlarda talaffuz qilinadi (ship [ɪ] – sheep [i:]). Shuningdek, ingliz tiliga xos diftonglar ([aɪ], [eɪ], [ɔɪ] va boshqalar) mavjud bo'lib, ular fonemik qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi (Roach, 2009).

O'zbek tilida esa 6 ta unli ([a], [e], [i], [o], [u], [ö]) va 23 ta undosh fonema mavjud (Sodiqov, 2015). O'zbek tili fonologiyasi izchil va soddaligi bilan ajralib turadi — unda uzun unli yoki diftonglar fonemik ahamiyatga ega emas. Unlilar artikulyatsion jihatdan old/orqa, lablangan/lablanmagan belgilar asosida farqlanadi.

Fonemalar sonining farqlanishi har ikki tilning tipologik tabiatini aks ettiradi: ingliz tili vokal markazli, o'zbek tili esa konsonantal muvozanatli tizimga ega.

Urg'u tizimi

Ingliz tilida urg'u leksik ma'noni farqlash imkonini beradi:

- 'record (ot) – re'cord (fe'l)
- 'import (ot) – im'port (fe'l)

Urg'u dinamik tabiatga ega bo'lib, u bo'g'inning kuchi, cho'ziqligi va ohangining o'zgarishi orqali ajraladi (Kenworthy, 1990). Ingliz tilida urg'u joylashuvi qat'iy qoidalarga bo'ysunmaydi, bu esa o'rganuvchilar uchun murakkablik tug'diradi.

O'zbek tilida esa urg'u odatda so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi va ma'no farqlovchi ahamiyatga ega emas. Urg'u ritmik barqarorlikni ta'minlab, intonatsion silliqlik yaratadi. Shunday qilib, ingliz tilida urg'u semantik-funksional, o'zbek tilida esa melodik-ritmik rol o'ynaydi.

Intonatsiya tizimi

Ingliz tili intonatsion tizimi kommunikativ niyatni ifodalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi:

- You're coming. (past ohang – tasdiq)
- You're coming? (ko'tariluvchi ohang – so'roq)

Ingliz tili keng diapazonli intonatsiya tizimiga ega bo'lib, u nafaqat grammatik, balki emotsional ma'lumotni ham uzatadi (Roach, 2009).

O'zbek tilida esa intonatsiya grammatik ko'rsatkichlar bilan birgalikda ishlaydi:

- Sen keldingmi? (ko'tariluvchi ohang)
- Men keldim. (pasayuvchi ohang)

Shunday qilib, ingliz tilida intonatsiya mustaqil semantik yukni ko'taradi, o'zbek tilida esa grammatik shaklni to'ldiruvchi yordamchi unsur sifatida faoliyat yuritadi.

Fonotaktik qonuniyatlar

Fonotaktika tovushlarning birikish qoidalarini belgilaydi. Ingliz tilida so'z boshida uchta undosh birikishi mumkin (spring, strong, street), o'zbek tilida esa bu holat cheklangan (gul, daraxt, tog').

O'zbek tili ochiq bo'g'inli, ingliz tili esa yopiq bo'g'inli tuzilishga ega. Bu farq talaffuzda fonetik interferensiyani keltirib chiqaradi: o'zbek o'quvchilar ko'pincha school so'zini iskul tarzida talaffuz qiladilar. Shu sababli, fonotaktik farqlarni o'rganish fonetik kompetensiyani oshirishda muhimdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarining fonologik tizimlari o'rtasidagi asosiy tipologik farqlarni ko'rsatdi. Ingliz tili murakkab fonemik tizim, uzun unlilar, semantik urg'u va keng intonatsion diapazon bilan ajralib tursa, o'zbek tili soddaligi, urg'u barqarorligi va fonotaktik izchilligi bilan farqlanadi.

Har ikki til fonologiyasining qiyosiy o'rganilishi fonetik interferensiyani kamaytirish, talaffuzni tabiiylashtirish, tarjimada fonologik adekvatlikni ta'minlash va til o'qitish metodikasini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Blackwell Publishing.

Kenworthy, J. (1990). Teaching English Pronunciation. Longman.

Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology (4th ed.). Cambridge University Press.

Sodiqov, A. (2015). Hozirgi o'zbek adabiy tili: Fonetika va fonologiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

Trask, R. L. (1996). A Dictionary of Phonetics and Phonology. Routledge.

MEHNAT MIGRATSIYALARI VA UNING AHOLI DAROMADLARIGA TASIRI

Qahhorov Muhridin

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
email:muhridinqahhorov21@gmail.com*

O'rolova Mohinur

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi email:
o'rolovamohinur1325@gmail.com*

Annontatsiya: *Ushbu maqolada, migratsiya jarayonlariga yondashuvning iqtisodiy asoslarini ochib berilgan, buning uchun iqtisodiy modellar asosida mehnat migratsiyasini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Iqtisodiy modellarga tayangan holda migratsiyaning yuzaga kelish sabablari hamda migratsiyaga yo'l olishga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni keltirilgan. Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonlariga davlatning yondashuvi qanday bo'lishi kerakligi, migratsiyaning davlatlar iqtisodiy raqobatiga, xususan milliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish narxlariga ta'siriga to'xtalib o'tilingan.*

Kalit so'zlar: *mehnat migratsiyasi, mehnat bozori, ishchi, ish beruvchi, ish haqi, mehnat bozoridagi talab va taklif, raqobat, inson kapitali, iqtisodiy model.*

Mehnat migratsiyasini iqtisodiy faoliyat sifatida tadqiq etish bizga uning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, shuningdek migratsion jarayonlarga davlatning iqtisodiy siyosati qanday bo'lishi lozimligini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, migrantlarning tashqi mehnat bozorlariga muttasil yo'l olishi mamlakatdagi ishchi kuchiga to'lovlar hajmini oshirib yubormaydimi?

Ish haqlarining oshib ketishiga olib keladigan bo'lsa, milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi? Umuman davlat tashqi mehnat migratsiyasiga yo'l olayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash siyosatni davom ettirishi lozimmi yoki yo'q? Bu kabi savollarga javob topish uchun migratsion jarayonlarning iqtisodiy mohiyatini tushunish talab etiladi. Biz ushbu maqolada shu masalani ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori ham xuddi boshqa bozorlar singari ishlaydi. Bir mehnat bozorlaridagi ham "ortiqcha taklif" o'zi uchun boshqa mehnat bozorlaridan talabni izlaydi. Raqobatli mehnat bozori muvozanati firmalarga ishchilarni taqsimlash ishchi kuchi mahsulining umumiy qiymatini maksimal darajagacha oshiradi. Raqobatli mehnat bozorida ishchilar doimiy ravishda yuqori maoshli ish izlaydilar, firmalar esa arzonroq ishchilar izlaydilar.

Ikki tomonning foydani maksimallashtirishga intilishlari jarayoni natijasida, shartli ravishda bir turdagi ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilarning marginal mehnat mahsuloti qiymati firmalar va mehnat bozorlari bo'yicha tenglashtiriladi. Shu tariqa ishchilar va firmalarning muvozanat taqsimoti samarali bo'ladi.

Boshqa biron bir taqsimot mehnatning yalpi daromadga qo'shgan hissasi qiymatini bu kabi oshira olmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, amaliyotda mehnat bozorlari unchalik mukammal ishlamaydi. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ladi. Bir tomondan, ishchilar ko'pincha o'zlarining malakalari va qobiliyatlarini bilishmaydi va boshqa ish joylarida yoki boshqa mehnat bozorlarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar to'g'risida kam ma'lumotga ega bo'lishadi.

Boshqa tomondan, ish beruvchilar yollagan ishchilarining haqiqiy mahsuldorligini to'liq bilishmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, nikoh kabi insoniy munosabatlarda bo'lgani kabi, ishchi va firma o'rtasidagi o'yinning qiymati to'g'risida ma'lumotlar asta-sekin oshkor etib boriladi.

Chunki ikkala tomon ham bir-birlarini asta-sekin bilib olishadi. Shu sababli, ishchilar va firmalarning mavjud taqsimoti to'la samarali bo'lavermaydi va boshqa muqobil taqsimotlar orqali yalpi daromadlar shakllanishi mumkin. Bu taqsimotlarni optimallashtirish inson kapitalidan foydalanishning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mehnat bozorlarining ishlashida yuqoridagi kabi muammo va kamchiliklar bo'lsa-da, mehnat bozorida o'ziga yarasha mobillik mavjud. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlari mehnat bozori doimiy oqimga o'xshab ko'rinadi: yigirma yoshdagi ishchilarning qariyb 4 foizi har qanday oyda ish joyini o'zgartiradi, bir yilda aholining 3 foizi davlat yo'nalishlari bo'ylab harakat qiladi va qariyb 1,4 million qonuniy va noqonuniy migrantlar mamlakatga har yili kirib kelishadi.

Mehnat mobilligining barcha yutug'i mushtarak iqtisodiy omillar bilan bog'liq: Ishchilar o'zlarining iqtisodiy ahvollarini yaxshilashni, firmalar esa samaraliroq ishchilarni yollashni istashadi.

Mehnat harakatchanligini tahlil qilish mehnat iqtisodiyotidagi bir qator asosiy savollarni hal qilishga yordam beradi: Migratsiyani belgilovchi omillar nima? Migrantlar turishni tanlagan kishilardan nimasi bilan farq qiladi? Qanday omillar migrantlarni o'zlari tanlab olishlarini belgilaydi? Migrantlarning o'zlari uchun ham, ular ko'chib o'tadigan joylar uchun ham migratsiya qanday oqibatlarga olib keladi? Migrantlar o'zlarining qarorlaridan katta foyda ko'rishadimi?

Mehnat migratsiyasini inson kapitaliga sarmoya sifatida tushuntirib, 1932-yilda Nobel mukofoti sovrindori John Hiks "aniq iqtisodiy afzalliklardagi farqlar, asosan ish haqidagi farqlar migratsiyaning asosiy sabablaridir" degan mehnat iqtisodiyotining eng muhim xulosani taklif qilgan edi. Migratsiya qarorlarining amaldagi barcha zamonaviy tahlili ushbu gipotezani chiqish nuqtasi sifatida ishlatadi va ishchilar migratsiyasini inson kapitaliga investitsiya kiritish shakli sifatida ko'rib chiqadi.

Ishchilar muqobil mehnat bozorlarining har birida mavjud bo'lgan ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining qiymatini hisoblab chiqadilar, potentsial harakatni amalga oshirish uchun sarflanadigan xarajatlarni aniqlaydilar va qaysi variantni umrbod ishlab topgan pulning hozirgi qiymatini maksimal darajaga ko'tarishini tanlaydilar.

Globallashuv jarayonida mehnat migratsiyasi ko'plab davlatlar iqtisodiy hayotining muhim qismiga aylangan. Ish kuchining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chishi —

mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, iqtisodiy imkoniyatlarning izlanishi va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim omildir. Xususan, O'zbekiston kabi aholi soni tez o'sayotgan mamlakatlarda mehnat migratsiyasi aholining daromadlarini oshirishda sezilarli rol o'ynaydi.

Mehnat migratsiyasining mohiyati: Mehnat migratsiyasi — bu ishga layoqatli insonlarning boshqa davlat yoki hududga vaqtinchalik yoki doimiy ravishda ishlash maqsadida ko'chib o'tish jarayonidir. U quyidagi shakllarga bo'linadi: Tashqi migratsiya – fuqarolarning chet davlatlarga borib ishlashi. Ichki migratsiya – mamlakat ichida bir hududdan ikkinchisiga ko'chib ishlash. Vaqtinchalik va doimiy migratsiya – ish shartlariga qarab farq qiladi.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy omillari. Odatda mehnat migratsiyasini quyidagi omillar yuzaga keltiradi: Ish o'rinlari yetishmasligi, mehnat haqi pastligi, yuqori daromad topish imkoniyati, kasbiy malaka bozor talablariga mos kelmasligi, hayot sifati va ijtimoiy himoya farqlari. Ushbu omillar odamlarni iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda ishlashga undaydi.

Mehnat migratsiyasining ijobiy ta'siri: Aholi daromadlarining oshishi, mehnat migrantlari xorijda mahalliy ish haqiga nisbatan bir necha baravar ko'p daromad olishlari mumkin. Bu mablag'lar: oilaviy ehtiyojlarni qondirish, uy-joy qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari, kichik biznes boshlani. Chet elda ishlayotgan mehnatkashlarning o'z yurtiga yuborayotgan pul mablag'lari: iste'mol talabini oshiradi, kichik va o'rta biznes rivojlanishiga yordam beradi, mamlakat valyuta tushumlarini ko'paytiradi. Bu iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. shi uchun ishlatiladi. Masalan, O'zbekiston iqtisodiyotiga har yili milliardlab dollarlik pul o'tkazmalari kirib keladi, bu bevosita aholi farovonligini oshiradi. Migratsiya qilingan mamlakatlarda ilg'or texnologiyalar, zamonaviy ish uslublari mavjud. Ishchilar: yuqori malaka, kasbiy tajriba, intizom va mehnat madaniyati kabi bilimlarni o'z yurtiga qaytgach qo'llashi mumkin.

Mehnat migratsiyasining salbiy ta'sirlari: Aholining mehnatga layoqatli qismi kamayishi Ko'plab yosh va malakali insonlar chet elga ketishi mahalliy mehnat bozorida: ishchi kuchi yetishmovchiligi, malakali kadrlarga talab oshishi mavjud bo'lishiga olib keladi. Uzoq muddatli migratsiya natijasida: ota-onasiz qolayotgan bolalar, oilalarda ajrimlar ko'payishi, ijtimoiy bo'shliq kuzatiladi. Daromadning keskin oshishi ba'zida: iste'molchilarning ortiqcha sarf-harajatlari, yig'ma kapital yo'qligi, iqtisodiy savodsizlik kabi muammolarga ham olib kelishi mumkin.

Migratsiya va daromadlar o'rtasidagi bevosita bog'liqlik. Mehnat migratsiyasi aholining daromadlarini oshirishda eng kuchli omillardan biridir. Statistika ko'ra: Chet eldan kelayotgan pul o'tkazmalari ko'plab oilalarning asosiy daromad manbaiga aylangan. Migrantlar yuborgan puldan 70–80% iste'molga yo'naltiriladi. Qolgan qismi investitsiya, tadbirkorlik va ko'chmas mulkka sarflanadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mehnat migratsiyasi zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining daromadlari va mamlakat iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o'tkazmalari uy xo'jaliklarining daromad manbalarini kengaytiradi, iste'mol va investitsiya faolligini oshiradi hamda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida likvidlikni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi chet elda orttirilgan malaka va tajribaning mahalliy mehnat bozoriga qayta kirib kelishini ta'minlab, inson kapitali sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq migratsiyaning salbiy jihatlari, xususan, malakali ishchi kuchining vaqtinchalik yo'qotilishi, oilaviy ajrimlar, ijtimoiy moslashuv muammolari ham mavjud bo'lib, ularni kamaytirish davlat tomonidan kompleks siyosatni talab qiladi.

Shunday ekan, mehnat migratsiyasi aholi daromadlarini oshiruvchi omil sifatida yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsa-da, uning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va iqtisodiyotga integratsiyasini optimallashtirish zamonaviy boshqaruvning asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Todaro, M. & Smith, S. Economic Development. — Addison Wesley, 2015. (Migratsiya nazariyalari, mehnat resurslari harakati haqida)
2. World Bank. Migration and Remittances Factbook. — World Bank Publications, 2023. (Pul o'tkazmalari, global migratsiya statistikasi)
3. ILO (International Labour Organization). Global Employment Trends. — ILO, 2022. (Xalqaro mehnat bozori holati, migratsiya ta'siri)
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hisobotlari, 2020–2024-yillar. (Aholi, bandlik, migratsiya bo'yicha milliy statistika)
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi ma'lumotlari, 2021–2024-yillar. (Migratsiya oqimlari va mehnat dasturlari bo'yicha ma'lumotlar)
6. Stark, O. The Migration of Labor. — Blackwell Publishing, 1991. (Mehnati migratsiyasi nazariy asoslari)
7. Ravenstein, E. G. Laws of Migration. — Journal of the Statistical Society, 1885. (Migratsiyaning ilk ilmiy qonunlari)
8. Castles, S., de Haas, H., Miller, M. The Age of Migration. — Guilford Press, 2020. (Migratsiya jarayonlarining global tahlili)
9. OAV tahlillari va xalqaro iqtisodiy sharhlar. (Migratsiya bo'yicha umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar).